

OILALARING ETNOHUDUDIY VA ETNOPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI IJTIMOIY - PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA

M.Rustamova - NamDu magistranti

Annotatsiya: Maqolada mutafakkirlar inson ma'naviy va tafakkur dunyosini boyitishda, insoniyat ongini, madaniy-ma'rifiy va oilani mustahkamlashga qaratilgan qarashlarini o'stirishda asosiy rol o'yunganlar. Bu borada eng avvalo o'z milliy qadriyatlarimiz, etnik xususiyatlarimizni, qolaversa, har bir xalqqa xos bo'lgan etnopsixologik xususiyatlarni bilish, milliy psixologik qiyofani, uning elementlari bo'l mish milliy xarakter, milliy urf-odat va an'analar, milliy g'oya, did, milliy ongning shakllanishi etnik munosabatlar zamirida shakllanadi.

Kalit so'zlar: *Oila, xuiq-atvor, milliy xarakter, Shaxslararo munosabatlar, urf-odat, an'analar, milliy g'oya.*

Аннотация: В статье мыслители сыграли главную роль в обогащении духовного и интеллектуального мира человека, в разработке взглядов, направленных на укрепление человеческого сознания, культурно-просветительской и семейной. В связи с этим, прежде всего, необходимо знать наши национальные ценности, этнические особенности, а также этнопсихологические особенности каждой нации, национальный психологический образ, его элементы, такие как национальный характер, национальные обычаи и традиции, национальную идею., вкус, формирование национального самосознания в основе межэтнических отношений.

Ключевые слова: Семья, поведение, национальный характер, межличностные отношения, обычаи, традиции, национальная идея

Abstract: In the article, thinkers played a major role in enriching the spiritual and intellectual world of a person, in developing views aimed at strengthening human consciousness, cultural, educational and family. In this regard, first of all, it is necessary to know our national values, ethnic characteristics, as well as the ethno-psychological characteristics of each nation, the national psychological image, its elements, such as national character, national customs and traditions, and the national idea., taste, the formation of national identity in the basis of interethnic relations

Key words: Family, behavior, national character, interpersonal relations, customs, traditions, national idea.

Har qanday millatning etnoxududiy joylashuvi, psixologik xususiyatlari, tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analar, hayotiy qadriyatlaridan ayro holda tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu borada eng avvalo o'z milliy qadriyatlarimiz, etnik xususiyatlarimizni, qolaversa, har bir xalqqa xos bo'lgan etnopsixologik xususiyatlarni bilish, milliy

psixologik qiyofani, uning elementlari bo'lmish milliy xarakter, milliy urf-odat va an'analar, milliy g'oya, did, milliy ongning shakllanishi etnik munosabatlar zamirida shakllanadi. Shaxslararo munosabatlar etnopsixologiyasida milliy birlilik tuyg'usini mustahkamlanishi bugungi juda tezkor va o'zgaruvchan, tahlikali zamonda tinch, osuda va insoniy qadriyatlarni asrab yashash imkonini ta'minlaydi. Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoevning 2017 yil 7 fevraldagagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi3 farmonida ham xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish deb nomlangan yo'nalishida o'zaro milliy va etnik munosabatlarni, qo'shni davlatlar bilan ijobiy hamkorlikka asoslanilgan aloqalarni kuchaytirish, baynalminal qadriyatlarni asrash kabi o'zbek millati turmush tarziga xos jihatlarga e'tibor qaratilgan. Bu esa bugungi kunda etnopsixologik fenomenlarni o'rganishni, millatga xos shakllanayotgan shaxslararo munosabatlarni psixologik tabiatini tahlil qilishni dolzarb masala ekanligini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017 yil 7 fevraldagagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Millatlararo adovat va milliy etnotsenrismning o'ziga xos turi borasida davlatimiz birinchi rahbari Islom Karimov o'zining "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" nomli tarixiy asarlari juda teran fikrlarni bayon etganlar. Asarda ta'kidlanganidek, "O'zbekiston aholisining ko'p millatliligi o'zbek xalqining milliy o'zligini anglashi va ma'naviy qayta tiklanishining o'sishi bilan chambarchas bog'liq holda jamiyatni yangilash, uni demokratlashtirishga undovchi zo'r kuch bo'lib xizmat qilmoqda. Bu respublikaning jahon hamjamiyatiga qo'shilishi uchun qulay shart-sharoit yaratmoqda" Mamlakatimizning birinchi Prezidenti I.A.Karimovning jamiki yurtimizda istiqomat qilayotgan yuzdan ziyod millat va elatlarning manfaatlarini bir xil himoya qilish, ular o'rtasida do'stlik va hamjihatlikni kuchaytirishga qaratilgan dono siyosati tufayli, bugungi kunda barcha o'zbekistonliklar shu yurt, shu Vatan ravnaqi yo'lida bir xil kurashish bilan birgalikda o'z milliy qadriyatları, madaniyati, san'ati, yashash tarzini hurmat qilishga, uning eng jozibali va tarbiyaviy nuqtai nazardan noyob an'analarini davom ettirish, namoyon etish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Zero, davlatimiz birinchi rahbari ta'kidlaganlaridek, "Har qanday millat, u naqadar kichik bo'lmasin – insoniyatning boyligidir va har qanday milliy birlikning, uning til, madaniy va boshqa xususiyatlarining yo'q bo'lib ketishi Yer yuzidagi madaniy va genetik fondning, shaxs imkoniyatlarining qashshoqlashuviga olib keladi. Shu bois har bir etnik birlikni saqlab qolish unga mansub odamlarning eng muhim maqsadi bo'lmosg'i kerak". va elatlar ichidagi o'zaro aloqalar muammolari strategik ahamiyatli bo'lib, bu o'z navbatida olimlar, xususan, etnopsixologlar oldiga millatlararo do'stlikni va bahamjihatlikni takomillashtirishga yo'naltirilgan fundamental va tadbiqiy ishlarni

amalga oshirish, natijalari bilan yurtimizda tinchlik va totuvlikni barqarorlashtirishga hissa qo'shish vazifasini qo'yadi. Ma'lumki, jahon fanida xalqlar va millatlar psixologiyasiga bag'ishlangan birinchi ilmiy tadqiqotlarni nemis klassik olimi Vil'gel'm Vundt boshlab bergen. Uning tadqiqotlaridagi "xalq" tushunchasi aslida etnik uyushma, millat ma'nosida tushuntirilgan. Uning fikricha, etnik guruuhlar psixologiyasini o'rganish uchun ularning tilini, odatlarini va ana shu xalqlarda keng tarqalgan afsonalar, aqidalar, fikrlash tarzlari, hayot tarzi va tutimlarni hamda boshqa ong tizimlarini o'rganish kerak. Vundtdan keyingi davrda o'tkazilgan muhim tadqiqotlardan biri bizning o'lkamizda o'tkazilgan bo'lib, uni psixolog A.R.Luriya amalga oshirgan. Bu eksperimental tadqiqot bo'lib, uni o'tkazishdan asosiy maqsad L.S.Vigotskiyning madaniy-tarixiy yondashuv g'oyasini tekshirish bo'lgan. Luriya boshchiligidagi olimlar guruhi revolyutsiya bo'lib o'tgan O'zbekiston sharoitida turmush tarzining o'zgarishi bilan o'zbek xalqi psixologiyasining ham o'zgarganligini isbot qilmoqchi bo'lganlar. Asosiy maqsad bilish jarayonlarining o'zgarganligini isbot qilish bo'lsa ham tadqiqotchilar o'z-o'zini anglash va o'z xulq-atvorini tahlil qilish borasida ham uyda o'tiradigan ayollar, endigina savod olish maqsadida savodxonlik kurslarida o'qiyotgan xotin qizlar hamda pedagogika bilim yurtlarida ta'lim olayotgan qizlar o'rtasida farq bor-yo'qligini tekshirishdan iborat bo'ldi. Shu bois har bir etnik birlikni saqlab qolish unga mansub odamlarning eng muhim maqsadi bo'lmog'i kerak". va elatlar ichidagi o'zaro aloqalar muammolari strategik ahamiyatli bo'lib, bu o'z navbatida olimlar, xususan, etnopsixologlar oldiga millatlararo do'stlikni va bahamjihatlikni takomillashtirishga yo'naltirilgan fundamental va tadbiqiy ishlarni amalga oshirish, natijalari bilan yurtimizda tinchlik va totuvlikni barqarorlashtirishga hissa qo'shish vazifasini qo'yadi.

Bu ulug' mutafakkirlar inson ma'naviy va tafakkur dunyosini boyitishda, insoniyat ongini, madaniy-ma'rifiy va oilani mustahkamlashga qaratilgan qarashlarini o'stirishda asosiy rol o'ynadilar. Hozirgi zamon psixologiyasi, istiqlol mafkurasi ana shu merosdan oziqlansa, uning eng yaxshi sahifalarini, qoidalarini qabul qilsa, o'z oldiga qo'ygan maqsad- vazifalari sharaf bilan bajarishi mumkin. Chunki ular odobnomasi, ibratnomasi oilada bolalarni har tomonlama psixologiyasiga ta'sir etish, ma'naviyatimizning ustivor iymon- e'tiqodlarimizning butun bo'lishligini, qadrli qadriyatlarimizning qadrlanishi garovidir. Bu borada biz albatta, madaniy me'rosimizga o'zlarining beqiyos ulushlarini qo'shgan buyuk allomalarimiz Beruniy, Farobi, ibn Sino, Mahmud Koshg'ariy va boshqalar ijodini o'rganish, ularning milliy psixologiyamizga urg'u bergen asarlarini o'rganish kelajak avlod uchun katta ma'rifiylarbiyaviy psixologik ahamiyatga molikdir. Bu silsilada Yusuf Xos Hojibning nomini ham faxr va iftixor bilan tilga olish mumkin. Ularning har biri nafaqat o'zbek milliy psixologiyasiga, jahon sivilizatsiyasining rivojiga tegishli hissasini qo'shgan o'z davrining yetuk mutafakkiri, chuqur bilimli, donishmand kishisi bo'lgan

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Myers D.G. Social psychology. 11 edition. - McGraw-Hill Education, 2012.
2. Андреева Т. В. Семейная психология: Учеб. пособие. - СПб.: Речь, 2004. - 244 с.
3. Аронсон Э., Уилсон Т., Эйкерт Р. Социальная психология. Психологические законы поведения человека в социуме. - СПб, 2002
4. Foziev E. F. Ijtimoiy psixologiya. — Toshkent., 2010.
- Abdullaeva SH., Asqarov A. Umumiy pedagogika. Nopedagogik oliv ta'lim muassasalari uchun o'quv qo'llanma. -T: Fan va axborot texnologiyalari, 2019. - 280 b.
6. Odilboyevich J. H. SHAXS VA UNING TEMPERAMENTIDA PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARINING ORNI VA AXAMIYATI MOSLASHISHDA UNING TARKIBIY QISMLARI // MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH. – 2023. – T. 2. – №. 19. – C. 78-84.
6. Xodjaev B.X., Umumiy pedagogika. Darslik.–Toshkent, “Sano-standart”, 2017 y.434 b.
7. Mavlonova R. va boshqalar. Umumiy pedagogika//darslik. –T.: 2016 y. - 538 b.
8. Haydarjon J. SHAXS IJTIMOIY XIMOYASIZLIGINI OGISHGAN XULQ ATVORGA TASIRINI IJTIMOIY PSIXOANALITIK MEXANIZMLARI // BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMUY JURNALI. – 2022. – T. 2. – №. 1. – C. 9-12.
9. Umarova M. Teoriya i istoriya pedagogiki. Uchebnoe posobie. – T.: “Izdatel'skopoligraficheskiy dom imeni Chulpana”, 2018 g., -348 b.